



2023-yil. 2-son.

# TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

Elektron jurnal

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
ДОШКОЛЬНОГО И  
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**Я** ПРЕПОДАВАНИЕ  
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ  
Электронный журнал

**L**ANGUAGE AND LITERATURE  
TEACHING |

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Electronic journal

ISSN 2010-5584



2023-yil  
2  
son

«Til va adabiyot ta'limi»  
«Преподавание языка и литературы»  
«Language and literature teaching»

ilmiy-metodik jurnal / научно-методический журнал

**Bosh muharrir**

Bahodir JOVLIYEV

**Tahrir hay'ati:**

Baxtiyor Saidov  
Dilshod Kenjayev  
Nizomiddin Mahmudov  
Nargiza Rahmonqulova  
Yorqinjon Odilov  
Nasirullo Mirkurbanov  
Jabbor Eshonqulov  
Valijon Qodirov  
Baxtiyor Daniyarov  
Abdurahim Nosirov  
Tolib Enazarov  
To'liqin Saydaliyev  
Ravshan Jomonov  
Zulxumir Mirzayeva  
Qozoqboq Yo'ldoshev  
Tajixon Sabitova  
Salima Jumayeva  
Nilufar Namozova  
Qayum Baymironov  
Manzar Abdulkayrov  
Lutfullo Jo'rayev  
(bosh muharrir o'rinbosari)  
Alijon Safarov (elektron nashr uchun)  
Madina Nuriddinova (elektron nashr uchun)  
Latifa Xudayqulova (elektron nashr uchun)  
Barno Kadirova (elektron nashr uchun)

**Muharrirlar:**

Nilufar Namozova  
Nigora Uralova  
Emma Torosyan  
Nargis Bobodjanova

**Sahifalovchilar:**

Akmal FARMONOV  
Gulnoza VALIYEVA

**Tahririyat manzili:**

100038, Toshkent shahri  
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.  
Telefon: (98) 121-74-16,  
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45, (71) 233-03-67.  
e-mail: til\_adabiyot@umail.uz  
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

## M U N D A R I J A

**USMON NOSIR TAVALLUDINING 110 YILLIGIGA**

Beknazar Toshboyev. Sohri bog'ning iste'dod sohibi ..... 2

**TAHLIL**

Maftuna Abdullayeva. Salbiy munosabat ifodalovchi ruhiy jarayon fe'llari ..... 6  
Abror Ochilov. Til - ma'naviyat komposi hamdir ..... 8  
Gulnoza Eshnayeveva. Psixolingvistikaning lisoniy ongni o'rganishdagi ahamiyati ..... 9  
Yulduz Mamadiyeva. Surxondaryo dialektida fitonimlarning fonetik, leksik xususiyatlari ..... 10  
Sanobar Mulkamonova. Abdulla Qahhor hikoyalarda badiiy detاللarning ifodalanishi ..... 13  
Firuz Safarov. Istiqloq davrida o'zbek adabiy tilining me'yoriylashtirilishi ..... 13  
Dildora Pulatova. Barkamol avlod bolalar maktablarida o'quvchi-yoshlarni  
ma'naviy - madaniy dunyoqarashlarini rivojlantirish ..... 16  
Shaxnoza Sultonqulova. Shukur Xolmirzayev ijodida detalning o'rni ..... 17  
Izzatillo Taniqulov. Tinchlik va osoyishtalik - oliy ne'mat ..... 18  
Shuxrat Mardanov. Grammatikaga oid arab tilidagi qo'lyozmalar va ularning tavsifi ..... 20  
Fayzullo Yaxyoyev. Hamid Sulaymon - Navoiy qo'lyozmalari tadqiqotchisi ..... 22  
Kamoliddin Kadirov. Features of the lyrical poetry of the east ..... 23  
Ravshan Niyazov, Firuza Kurbanova. The main peculiarities of detective genre ..... 26  
Mahliyo Jakbarova. O'quvchilarda nutq so'zlash ko'nikmasini rivojlantirishda interfaol usullardan foydalanish ..... 28  
Zuhra Fayziyeva. Marosim nomlari onomastikasi ..... 30

**TILSHUNOSLIK**

Charos Daminova. Comparative semantic analysis of paremiias expressing  
interpersonal relations in english and uzbek languages ..... 32  
Dilafroz Umarova. Types of conceptual meaning in linguistics ..... 34  
Oyniso Uralova, Zuhra Hazratova. Jurnalistika sohasi talabalarini o'qitishda  
kommunikativ kompetensiyalar: sotsiolingvistik kompetensiyaning o'rni ..... 35  
Rano Uzokboyeva. Consecutive interpreting: required skills of students ..... 38  
Shakhlo Abdullaeva. The difference of language and speech, and its significance for methodology ..... 40  
Uktam Abdinazarov. Learning of equine studies terminologies in english ..... 42  
Zebo Shuxratova, Nilufar Sadullayeva. Ingliz media matnlarida frazeologik  
birliklarning ifoda etilishi New York times gazetasidagi frazeologizmlar misolida ..... 43

**TADQIQOT**

Marjona Xayrullayeva. Buxoro viloyat Vobkent tuman mikrotoponimlari bilan bog'liq atamalar tasnifi ..... 45  
Orzigul G'aniyeva, Aminova Nilufar. Jon Steynbekning "East of Eden" romanida oilaviy munosabatlar tasviri ..... 47  
Hatambey Sulaymonov. Adabiyotshunoslikda vaqt o'lchami va tasvir ifodasi ..... 49  
Muhayyo Kenjayeva, Nigora Normurodova. Ona tili darslarida didaktik usullardan foydalanishning ahamiyati ..... 51  
Murodova Muqaddas. Ingliz va o'zbek adabiyotida satira talqini ..... 53  
Sevara Qahromonova. 5- Sinf ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarning og'zaki nutqini baholash mazmuni ..... 55  
Anvarbek Turdialiyev. Qaratqich kelishigining qo'llanishi ..... 56  
Husniddin Suvanov. Anvar Suyunning "G'o'bdintog' hikoyalari" da milliy koloritning o'rni ..... 58  
Yunus Davidov. Ko'p ma'nolilikning boshqa lingvistik hodisalar bilan munosabati ..... 63  
Shaxnoza Begiyeva. Rauf Parfining "Abdullajon" marsiyasida poetik sintaksis masalasi ..... 65  
Shoxjaxon Karimov. Atoqli otlar yasalishi va apellyativ konversiya ..... 66  
Uyg'unjon Turdimurodov. Xatirchi tumani toponimlarining yasalish xususiyatlari ..... 68  
Erkin Soliyev. Chet til o'qitishda kasbiy malakani shakllantirishga ilmiy yondashish ..... 70  
Muhayyo Soliyeva. Ma'nodosh so'zlarning asosiy xususiyatlari ..... 73  
Namoz Akhmedov. What is pragmatics? ..... 75  
Saidfozil Akmalxonov. Online platforms and equipment to work with students in online and offline modes ..... 76  
Sohila Aminova, Orzigul Ablakulova. Difficulties associated with developing  
listening skills based on paradigmatic vocabulary meaning ..... 78  
Mokhinur Yodgarova. Religious world in linguacultural world picture ..... 79  
Otajon Norov. Zamonaviy o'zbek she'riyatida islomiy g'oyalari talqini ..... 81  
Okila Razzakova, Nodira Hamidovna. Use of role-play method in teaching speaking in ESL classes ..... 83  
Abdivali Eshqobilov. Onomopoetika va tarjima masalalari pragmatik adabiyotshunoslik nazariyasi aspektida ..... 86  
Charos Hamrayeva. Ingliz tili fanini o'qitishda masofaviy ta'lim texnologiyalarining ahamiyati va samarasi ..... 88  
Gavhar Melikova. Ingliz tilini o'zlashtirishda tinglab tushunish metodining ahamiyati ..... 90  
Hulkar Rajabova. Oilada kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda kitobxon onaning roli va ahamiyati ..... 91

**ЯЗЫКОЗНАНИЕ**

Сайёра Ибрагимова. Псевдоним как антропонимическая единица ..... 93

**ЛЕКСИЧЕСКИЙ МАТЕРИАЛ**

Дилдора Толипова. Слова-лакуны, связанные с сельским хозяйством ..... 95

**НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ**

Эльдар Гиздулин. Способы создания постапокалиптической пандемийной среды в романе  
Яны Вагнер "Вонгозеро" ..... 97

**ИЗ ИСТОРИИ СЛОВ**

Марина Цой. Причины и последствия возникновения двуязычия в московской руси ..... 99

o'ringda "Cholni bunchalik istarasi issiq, dilkash qilgan, soqolidan tortib yurishigacha hamma narsasini, har bir harakatini chiroyli, yoqimli qilib ko'rsatgan, ehtimol, uning odamoxunligi ham bo'lsa. O'zi shunaqa bo'ladiku: yaxshining yuzida zuluk ham xol bo'lib ko'rindi", – deya ta'riflaydi. Yozuvchi qahramonning yaxshi

amallarini sanab o'tirmaydi, uning portreti orqali lo'nda chizib qo'ya qoladi. Yozuvchi badiiy maqsadini yuzaga chiqarishda detallar muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Adib asarlarida detallar mohirona qo'llanilib, asar mazmunini boyitishda, voqealar ta'sirchanligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qur'onov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
3. Abdulla Qahhor. Asarlar. Besh jildlik. 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.

**Firuz Safarov,**  
BuxDU doktoranti (DSc), f.f.n., dots.

## ISTIQLOL DAVRIDA O'ZBEK ADABIY TILINING ME'YORLASHTIRILISHI

Istiqlol munosabati bilan davlatning til siyosati o'zgarib o'zbek tilining qo'llanishi va rivojlanishi yo'lidagi cheklovlar olib tashlandi. Davlat tomonidan o'zbek adabiy tilining ijtimoiy va ruhiy vazifasini takomillashtirish asosiy maqsad qilib belgilandi. Adabiy til bo'limlarini shu nuqtayi nazardan isloh qilish, qayta baholash bosh vazifaga aylandi [1, 57].

Adabiy til me'yorlarini isloh qilish yozuv va imlodan boshlandi [1, 57]. O'zbek tili tovush qurilishini to'la va to'g'ri ifodalashni hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1993- yilning 2-sentabrda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonunni qabul qildi. Yozuv jarayonida texnika vositalaridan kengroq foydalanish, harflar shaklini jahondagi taraqqiy qilgan davlatlar alifbolariga yaqinlashtirish [3, 21] maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995-yil 6-mayda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonunga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qildi. Bu qarorda o'zbek alifbosi 26 harf, 3 harf birikmasidan iboratligi qayd qilindi.

O'zbek-lotin alifbosiga o'zbek tiliga xos bo'lmagan e, ë, ю, я, ц harflari, yumshatish belgisi kiritilmadi. Bu bilan alifbomiz rus tili ta'siridan xalos bo'lib o'zbek tilining tovush tizimiga moslashdi. Biroq alifboni tuzishda faqat o'zbek tilining o'ziga xos xususiyati (tovush tizimi) emas, hozirgi davr ehtiyoji, zamonaviy fan-texnika yutug'i ham inobatga olinib oraliq yo'l tutildi. Binobarin alifboning afzalligina emas, undagi ayrim qusur-kamchilik ham shu bilan izohlanadi [1, 58]. Jumladan "alifboga harf birikmasining kiritilishi tejamkorlikka ziddir. Burun tovushining esa ikkita harf bilan yozilishi talaffuzdagi mavjud xatoni tuzatishga yordam bermaydi. Ko'p holda birikma tarkibidagi ikkala harf alohida-alohida talaffuz qilinaveradi. Shu bois 30-yillarda qo'llangan lotincha alifbodagi η harfi qabul qilinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi" [1, 58].

Alifbodagi olti harfning ef, el, em, en, er, es deb nomlanishini ham to'g'ri deb bo'lmaydi [1, 58] chunki harflarning bunday nomlanishi o'zbek tilining emas, rus tilining xususiyatiga mos keladi.

Alifbo bilan barobar *imloni* isloh qilish ham boshlandi. Vazirlar Mahkamasining 1993-yil dekabr oyidagi qaroriga binoan "O'zbek orfografiyasining yangi qoidalarini ishlab chiqishni amalga oshiruvchi ishchi guruhi" tuzilib, unga lotin yozuvi asosidagi yangi o'zbek alifbosiga mos imlo qoidalarini yaratish topshirildi. O'zbek tilining 82 moddadan iborat asosiy imlo qoidalari tuzilib Vazirlar Mahkamasining 1995- yil 24- avgustdagi qarori bilan tasdiqlandi. Imlo qoidalari shu yilning o'zida "O'qituvchi" nashriyotida chop etildi.

Bir qator qoidada ruscha imloning ta'siri sezilmaydi. Masalan 56-bandda tartib son arab raqami bilan yozilsa *-nchi* qo'shimchasi o'rniga chiziqcha qo'yiladi deb 1991-yilning 1-sentabri misoli ham beriladi. Demak ruscha imloga asoslangan me'yor o'zgartirilib nega degan savolning oldi olingan. Lekin bosh harflar imlosida kirillcha imlodagi har xillik saqlab qolingan. Chunonchi davlat, davlat oliy tashkilot va mansablari, xalqaro tashkilotlarning nomi (71-band), davlatning oliy darajadagi mukofoti (72-band) tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan, boshqa tarkibli nomlarda oliy mansabni bildiruvchi birinchi so'z, vazirlik, idora, korxon, tashkilot (71-band), shuningdek muhim tarixiy sana va bayramlarning nomi (70-band) tarkibidagi faqat birinchi so'z bosh harf bilan yoziladi deyilgan. Natijada nima sababdan rus tiliga xos imlo qoidasi o'zgartirilmagan degan savol tug'iladi. 51-banddagi eslatmada juft so'z qismlari orasida *-u (-yu)* bog'lovchisi kelsa undan oldin chiziqcha qo'yilishi aytiladi (*do'st-u dushman, kecha-yu kunduz*). Bog'lovchi nega chiziqcha bilan yoziladi, nega an'anaga rioya qilinmagan degan savollar tug'iladi [1, 59]. Bundan tashqari *-ga, -gacha, -gach, -guncha, -gani, -gudek, -gan, -gin, -gina* qo'shimchalarining g,

g' tovushi bilan so'zlarga qo'shilganda g (g) harfi bilan yozilishi (*barrga, bug'ga, sog'ga, og'gan, sig'guncha*) haqidagi qoidani tilimizga mos deb bo'lmaydi chunki bu qoida milliy talaffuzga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Imloni me'yorlashtirishda katta tarixiy tajriba, an'ana ega bo'lgan tillar (masalan nemis tili)da ham alifbo o'zgarib turib vaqti-vaqti bilan imlo qisman isloh qilinishini nazarda tutsak o'zbek tilining yangi imlo qoidalarida munozarali, izohtalab o'rinlarning bo'lishi tabiiyligi ayon bo'ladi [1, 59].

Istiqol davrida o'zbek tili leksikasi ham isloh qilindi. Sho'ro davrida o'zbek tili leksikasiga, ayniqsa uning terminologiyasiga zo'rma-zo'raki kiritilgan ko'plab ruscha, baynalmilal so'zlar o'zbek tilida avvaldan mavjud bo'lgan so'z va terminlar bilan almashtirildi [2, 65]. Atamalarini davr ruhiga moslash ya'ni me'yorlashtirish kabi ulkan va murakkab vazifani ham davlat o'z zimmasiga oldi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Atamashunoslik qo'mitasi tuzildi (1989). Qo'mita oldiga me'yorlashtirishni ham ilmiy, ham amaliy jihatdan tashkil etish vazifasi qo'yildi. Hozirga qadar atamaqo'm tomonidan tayyorlangan tibbiy atamalar (1992), tilshunoslik atamalar (1993), ish yuritish atamalar (1994) kabi ruscha-o'zbekcha lug'atlar nashr qilindi. Atama tanlashning ilmiy asosini belgilab beruvchi qo'llanma [4] chop etildi va hokazo [1, 59 – 60].

Mustaqil davlatimiz e'tibori qaratilgan yana bir soha *joy nomlari (to-ponimiya)*dir. Bu soha sho'ro saltanatida mustamlakachilik siyosati tufayli milliylikdan deyarli mahrum etilgan edi. Shu bois respublika miqyosida joylarni nomlash, ularni o'zgartirishning ijtimoiy, lisoniy jihatlarni o'rganib imloviy va vazifaviy me'yorlashtirish masalasi turar edi. Bu masalani ijobiy hal etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining ma'muriy-hududiy birliklar, aholi punktlari, tashkilot va boshqa toponimik ob'ektlarning nomini tartibga solish to'g'risida qarori chiqdi ["Xalq so'zi", 1996, 1.VI]. Ma'muriy - hududiy tuzilish, toponimik ob'ektlarga nom berish, ularning nomini o'zgartirish masalalarini hal qilish tartibi to'g'risida Qonun qabul qilindi ["Xalq so'zi", 1996, 7.IX]. Toponimik ob'ektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi respublika komissiyasi tuzildi ["Xalq so'zi", 1996, 1.VI] [1, 60]. Natijada o'nlab tuman, yuzlab shaharcha, qishloq, ovul, kolxoz, shirkat xo'jaligi, minglab ko'cha, maydon, xiyobon, oliy o'quv yurti, maktab, o'rta maxsus o'quv yurti, tashkilot va muassasa nomi o'zgartirildi [5].

Istiqol davrida o'zbek tili grammatik qurilishiga xos hodisalar ham o'zbek tilining ichki tabiatidan kelib chiqib talqin qilindi. Jumladan o'zbek substansial tilshunosligi tomonidan quyidagi talqinlar ishlab chiqildi: So'z turkumlari tasnifi tilshunosligimizdagi eng chigal masalalardan biri edi. Masalan, o'zbek tilida olmosh barcha mustaqil so'z turkumini, qolaversa, gap va matn ham almashtirila olsa-da, u rus tilidagidek ot, sifat, son turkumiga xos so'zlar almashtiruvchisi sifatida talqin qilinar edi. Buning asossizligi ilmiy isbotini topdi; taqlidlarning so'z turkumlari sirasida tutgan o'rni ham o'zbek tili tabiatiga yot edi. Unga chuqur ilmiy tahlillar asosida mustaqil so'zlar sirasidan o'rin berildi; grammatik qo'shimchalar mohiyati ham, ularning nomlanishi ham o'zbek tilining tabiatiga mos emas edi. Shu boisdan so'z o'zgartiruvchi va shakl

yasovchi atamalar ostida o'rganiluvchi hodisalar qayta ko'rib chiqildi va sintaktik shakl hosil qiluvchilar hamda lug'aviy shakl hosil qiluvchilar atamasi ostida qayta tasniflandi; *gap markazi* tushunchasi fanga kiritilib o'zbek tilining gap qurilishiga xos substansial mohiyati ochildi va o'zbek tilida gapning eng kichik qurilishi **kesim** qolipiga ega ekanligi tan olinib, uning **ega-kesim** qolipli rus va boshqa tillardan farqi asoslandi; qo'shma gap tasnifi va tarkibini belgilashda o'ziga xos va yangicha ish tutildi. Bunda gap markazi tushunchasiga, turkiy xususiyat – o'zbek tilida rivojlangan kesimlik shakllariga va qo'shma gap tarkibidagi bir-birini bog'lovchi vositalarga, tobe gapning hokim gap silsilasida tutgan o'rniga asoslanildi [6, 27 – 28]. Bu talqinlar o'rta umumta'lim maktabi darsliklariga kiritildi.

Ruhiy-ijtimoiy tilshunoslik vakillari tomonidan ham o'zbek tili grammatik hodisalar me'yori isloh qilindi: avvalo o'zbek adabiy tili qurilishining bosh xususiyati aniqlandi [7, 56 – 65; 8, 42 – 57], shu xususiyat asosida grammatik birliklarning mazmuni va qo'llanishi kodifikatsiya qilindi. Jumladan otning son kategoriyasi shakllari uzvli va kontekstual tahlil qilinib sho'ro davrida birlik shakli deb qaralgan otlarning birlik, ko'plik va umumiylikka betaraf ekanligi ko'rsatildi [7, 65 – 71; 9], ot va fe'l (kesim)ga qo'shiladigan *-lar* qo'shimchasining birikma, gap, matnda tejalish qoidalari bayon qilindi [7, 31 – 37]. Egalik ma'nosining faqat qo'shimcha hamda so'z bilan ifodalanishi orasidagi farq ham belgilab berildi ya'ni me'yorlashtirildi [1, 294 – 307]. Fe'ning tuslanish vositalari (shaxs, son va hurmat qo'shimchalari)ning o'zaro ma'nodoshligi aniqlanib ma'nodosh vositalarning farqi ya'ni nutqda kishilik olmoshining subyekt (ega)ni ta'kidlash uchun xizmat qilganidan tejab ishlatilishi asoslab berildi [1, 231 – 249]. Faqat olmosh emas, boshqa so'zlar bilan ham qo'shimcha o'rtasida jumladan ma'nodoshlik mavjudligi (jumladan *-moqchi* bilan *istamoq, xohlamoq, -digan* bilan *kerak, lozim, -ku* bilan *axir, -da* bilan *albatta, -sa* bilan *agar, -sa ham* bilan *garchi, -gina* bilan *faqat, xolos, -ga* bilan *uchun, -dan* bilan *orqali, -dek, -day* bilan *go'yo, singari* ma'nodosh) va ta'kid nazarda tutilmaganda faqat qo'shimcha ishlatilib so'z tejalishi aytili [7, 60]. Shuningdek o'zbek xalqining ma'naviy-ruhiy xususiyatini aks ettiruvchi hurmat ma'nosi grammatik kategoriya va grammatik-leksik maydon sifatida o'rganildi [9, 93 – 100, 109 – 114; 1, 197 – 230; 10], o'zbek tili qurilishining o'ziga xosligini ko'rsatadigan o'zlashtirmalikning *-(i)bdi, -gan ekan, -gan emish, -(a)r ekan, -(a)r emish* hamda *ot va boshqa so'z turkumlari + ekan, emish to'liqsiz fe'li* kabi morfologik shakllar orqali ifodalanishi asoslab berildi [1, 307 – 315; 12].

Ruhiy-ijtimoiy tilshunoslik vakillari tomonidan o'zbek tili punktuatsiyasi ham tejamkorlik nuqtayi nazaridan isloh qilindi [1, 453 – 461].

Biroq bu tilshunoslik yo'nalishi tomonidan amalga oshirilgan islohot hali ommalashtirilmadi jumladan o'rta maktab va oliy ta'lim ona tili darsliklariga kiritilmadi. Vaholanki bu yo'nalish belgilab bergan qoidalar o'zbek adabiy tili madaniyati (nutqi madaniyati)ni oshirishga xizmat qiladi. Chunki hozirgi kunda madaniy o'simlikka zarpechak chirmashganidek o'zbekcha nutq

(gap, matn) ham noo'rin, noto'g'ri qo'llanayotgan so'z va qo'shimcha (shuningdek tinish belgisi – F. S.) bilan to'lib ketdi. Zarpechakdan xalos qilinmasa o'simlik sarg'ayib bora-bora quriganidek ortiqcha unsurlardan tozalanmasa tilning ham sofligiga putur etib joziba, ta'sir kuchi zaiflashib ko'rki yo'qoladi [7, 40].

Istiqlol davrida o'zbek adabiy tilining bir qancha bo'limi isloh qilingan bo'lsa-da tilshunosligimizda islohtalab soha qolmadi deb hisoblay olmaymiz. O'zbek tili qurilishining o'ziga xos xususiyatiga mos kelmaydigan ayrim ruscha qolip va andozalardan voz kechilgan emas. Darslik va qo'llanmalarda mustabid tuzum davrida belgilangan me'yor va qoidalar o'zgartirilmayapti [1, 438].

Adabiy tilimiz me'yori isloh qilish bilan bog'liq mavzulardan biri so'z va qo'shimcha ma'nodoshligi bo'lib bu ma'nodoshlik asosida qo'shimcha bilan ma'nodosh so'zlarning nutqda qo'llanish me'yori ya'ni tejab tejalmasligi qoidalashtirilishi lozim. Yana bir hodisa ergashgan qo'shma gap bilan sodda gap ma'nodoshligi bo'lib [13, 122, 220] o'zbek adabiy tilining bosh xususiyatiga tayanib bu ma'nodosh birliklarning uslubiy farqi belgilab berilishi zarur.

O'zbek adabiy tilining talaffuz me'yorlari ham isloh qilinishi lozim. Chunki rus tilidan o'zlashgan tarkibida ц, ё, я, ю harflari bo'lgan so'zlar lotin yozuvida o'zbek tiliga moslashtirilgan bo'lsa-da (masalan *sement, siilindr, Fransiya, rejissor, otrad, glukoz* kabi) hali ham rus tilidagidek talaffuz qilinayapti.

Istiqlol adabiy tilning uslublarga bo'linishini ham qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Chunki sho'ro davridagi tasnifda o'zbek adabiy tilida besh xil uslub [14, 41 – 71] borligi ko'rsatilib madaniyat va tamaddunning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan diniy tafakkur mahsuli inobatga olinmagan [1, 61]. Ahmad Yassaviy XII asrda o'zbek tilini tariqat tili maqomiga ko'tarib arab va fors tasavvuf tili davrasiga qo'shganligi [15, 3], o'tgan asrlar mobaynida tasavvufga doir boy ilmiy va badiiy adabiyot

yaratilganligini, istiqloq davrida unga davlat miqyosida e'tibor berilayotganligi, uni oliy ta'limda o'qitish yo'lga qo'yilganligini inobatga oladigan bo'lsak hozirgi o'zbek adabiy tilida *diniy-tasavvufiy uslub* bor deya olamiz. Bundan ushbu uslubni ilmiy-amaliy jihatdan o'rganmog'imiz zarurligi anglashiladi. Birinchi galdagi vazifa diniy-tasavvufiy istilohlar lug'atini tuzishdir. Chunki tasavvuf olami – majoz va majoziy fikrlashga keng erk beradigan o'ziga xos murakkab bir olam. Mutasavviflar istilohotida ramz so'z zohirining tagida yotgan va tasavvuf ahlidan boshqa kishilar anglay olmaydigan yashirin ma'no erur [16, 77]. Shunda qizil saltanat davrida mumtoz adabiyotimiz she'r va g'azallari talqinida yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarni tuzatib ularning botiniy ma'nolarini to'g'ri anglash va sharhlash imkoni tug'iladi [1, 61].

Ma'lum bo'ladiki diniy-tasavvufiy uslub ham adabiyotshunoslik, ham tilshunoslik uchun umumiy mavzudir. Adabiyotshunos lug'at tuzib, tasavvufning falsafiy mohiyatini tadqiq qilib, tasavvufona asarlar tarjimai va sharhi bilan shug'ullansa tilshunos uning boshqa uslublar bilan munosabati, o'ziga xos xususiyatini o'rganib me'yorlashtirishga e'tibor beradi [1, 61].

O'zbek adabiy tili bo'limlarini isloh qilishning qay darajada amalga oshishi shaxs jumladan tilshunos ruhiyatiga bog'liq bo'ladi. Tilshunos mustamlakachilik asorati bo'lgan ruhiy tutqunlikdan qutulib milliy tuyg'usi uyg'onsa ona tilining o'ziga xos xususiyatini anglay boshlaydi. Ajnabiy til ta'sirida noto'g'ri me'yorlashtirilgan hodisalarni idrok qilib ona tilini yot unsurlardan tozalashga kirishadi [1, 60].

Xulosa sifatida aytish mumkinki bugungi kunda o'zbek tilshunosligi oldida turgan birlamchi vazifa ona tilining sistem tuzilishi ya'ni subutiy sifatlariga asoslangan holda adabiy til me'yorlarini isloh qilishdan iboratdir [Zikr., 2004, 56]. Adabiy til me'yorlarini isloh qilish uchun avvalo o'zbek adabiy tili qurilishining bosh xususiyatini aniqlash va shu xususiyat asosida ish yuritish lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Зикриллаев Ф. Рух ва тил. Тошкент, Фан, 2018.
2. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12-жилд. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. 712 б.
3. Абдуллаев Й. Ҳамроҳим. Тошкент, Ўқитувчи, 1995. 96 б.
4. Ҳожиёв А. Термин танлаш мезонлари. Тошкент, Фан, 1996.
5. К. Матёқубов. Миллат кўзгусига ғубор туширмайлик. <http://www.adolatgzt.uz/society/5737>.
6. Sayfullayeva R. R., Mengliyev B. R. va b. Hozirgi o'zbek tili. Darslik. Toshkent, Globe Edit, 2020. 554 b.
7. Истиқлол ва она тили таълими (тўплам). Тошкент, Фан, 2000.
8. Зикриллаев Ф. Истиқлол ва адабий тил. Тошкент, Фан, 2004.
9. Сафаров Ф. Ўзбек тилида сон-миқдор микромайдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти. Фил. фан. номз. дисс. Самарқанд, 2004.
10. Зикриллаев Ф. Ўзбек тили морфологияси. Бухоро, 1994. 163 б.
11. Ҳожиёва Ҳ. Я. Ўзбек тилида ҳурмат майдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти. Фил. фан. номз. дисс. Самарқанд, 2001. 130 бет.
12. Жумаев Э. Ўзбек адабий тилида ўзлаштиралик ва матн. Фил. фан. фалс. докт. дисс. Бухоро, 2021.
13. Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. Тошкент, Фан, 1992. 298.
14. Шомақсудов А. Ўзбек тили стилистикаси. Тошкент, 1974.
15. Иброҳим Ҳаққул. Яссавийшунослик: ўтмиш, бугун ва истиқбол // Хожа Аҳмад Яссавий (ҳаёти, ижоди ва аънавлари). Тошкент, 2001.
16. Иброҳим Ҳаққул. Ирфон ва идрок. Тошкент, 1998.